O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ DEPUTATLARI YUNUSOBOD TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr II-85-142-14-206-K/23 Yunusobod tuman hokimligi

2024-yil uchun Yunusobod tuman mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari va Budjet kodeksining 99-moddasi hamda 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuni va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23-son qaroriga muvofiq, shuningdek, Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-3/2694-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23-son qarori (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) qabul qilinganligi;

Qarorning 5-ilovasiga muvofiq, 2024-yil uchun Yunusobod tuman mahalliy budjetining daromadlari 174 544 000,0 ming so‘m va xarajatlari 174 544 000,0 ming so‘m miqdorida balanslashgan holda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun Yunusobod tuman mahalliy budjetining daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Yunusobod tumanining tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning

cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qarorning 4-ilovasiga muvofiq, 2024-yil uchun Yunusobod tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha Toshkent shahar mahalliy budjeti bilan tumanlar mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent shahar G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

5. Qonun va Qarorga muvofiq, 2024-yil uchun Yunusobod tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi hajmi 1 489 607,0 ming so‘m miqdorida;

2024-yil uchun Yunusobod tumanining tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan (aylanma kassa mablag‘larining) eng kam miqdori 685 000,0 ming so‘m etib belgilansin.

6. Qonun bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

7. 2024-yilda soliqlarning quyidagi turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushadigan tushumlar.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar mahalliy budjeti hamda tuman mahalliy budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer soligi;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘grisidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘laydigan daromad solig‘i teng ulushlarda taqsimlash.

d) Jarimalar. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–190-son qaroriga asosan tuman hokimliklari tomonidan o‘z hududlaridagi avtomobil yo‘llarida o‘rnatilgan yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun undirilgan jarimalar budjetdan tashqari hisob raqami orqali o‘tuvchi daromadlar tuman mahalliy budjetlarida qoldirilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

8. Quyidagilar tegishincha Toshkent shahrining shahar budjetidan, tumanlar budjetlaridan moliyalashtiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahri, tumanlar Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari.

9. Yunusobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Dagarov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Tillabayeva), tuman soliq inspeksiyasi (I.Kadirov) hamda mas’ul bo‘limlar va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada

kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Yunusobod tuman soliq inspeksiyasi (I.Kadirov) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan olinadigan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

kadastr agentligi Yunusobod tuman bo‘limi bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

11. Majburiy ijro byurosi Yunusobod tumun bo‘limi (X.Tashpulatov), Yunusobod tuman soliq inspeksiyasi (I.Kadirov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

12. Xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

13. Quyidagilar:

tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlar agentligi, tumanlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

14. Yunusobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman soliq inspeksiyasi, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tegishli bo‘limlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

15. Yunusobod tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Darxonov):

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining va Toshkent shahar hokimligining rasmiy veb-saytlariga joylashtirilsin.

16. 2024-yil 1-yanvardan xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashining 2023-yil 5-yanvardagi “2023-yil uchun Yunusobod tuman mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-71-1-14-206-K/23-sonli qarori ahamiyatini yo‘qotganligi e’tirof etilsin.

17. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

18. Ushbu qaror yuzasidan vujudga keladigan nizolar sud tartibida hal qilinadi.

19. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yunusobod tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Tulyaganov) va Yunusobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Dagarov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.A.Abduvaliyev**

Xalq deputatlari Yunusobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-85-142-14-206-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Yunusobod tuman mahalliy budjetining daromadlari prognozi

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
-	**Jami Daromad:**	**174 544 000,0**
1.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	10 268 000,0
2.	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	22 938 000,0
3.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	21 706 000,0
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	57 396 000,0
5.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 416 000,0
6.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 759 000,0
7.	Aylanmadan olinadigan soliq (yagona soliq to‘lovi)	23 739 000,0
8.	Davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushadigan tushumlar	2 090 000,0
9.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	7 232 000,0

Xalq deputatlari Yunusobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-85-142-14-206-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Yunusobod tumanining tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
-	**Xarajatlar miqdori Jami:**	**174 544 000,0**
-	*jumladan:*	
1.	**Maorif (ta’lim) sohasi:**	**66 451 913,0**
	joriy xarajatlar:	*66 451 913,0*
1.1.	**Maktabgacha ta’lim sohasi**	***36 049 008,0***
	joriy xarajatlar:	*36 049 008,0*
1.2.	**Umumta’lim sohasi**	**30 402 905,0**
	joriy xarajatlar:	*30 402 905,0*
2.	**Sog‘liqni sohasi**	**4 995 808,0**
	joriy xarajatlar:	*4 995 808,0*
3.	**Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari sohasi:**	**11 553 898,0**
	joriy xarajatlar:	*11 553 898,0*
3.1.	**Madaniyat va ommaviy axborot vositalari sohasi**	**2 528 788,0**
	joriy xarajatlar:	*2 528 788,0*
3.2.	**Jismoniy tarbiya va sport sohasi**	**9 025 110,0**
	joriy xarajatlar:	*9 025 110,0*
4.	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”**	**136 589,0**
	joriy xarajatlar:	*136 589,0*
5.	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi (adaptatsiya)**	**325 778,0**
	joriy xarajatlar:	*325 778,0*
6.	**Iqtisodiyotga xarajatlar:**	**30 601 143,0**
	shu jumladan:	
6.1.	**Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlari**	**1 335 000,0**
	joriy xarajatlar:	*1 335 000,0*
6.2.	**Obodonlashtirish sohasi**	**20 819 158,0**
	joriy xarajatlar:	*20 819 158,0*
6.3.	**“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari**	**8 446 985,0**
	joriy xarajatlar:	*8 446 985,0*
7.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**35 159 264,0**
	joriy xarajatlar:	*35 159 264,0*
8.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 489 607,0**
	joriy xarajatlar:	*1 489 607,0*
9.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**23 830 000,0**
	tashabbusli budjet tadbirlari:	*23 830 000,0*

Xalq deputatlari Yunusobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-85-142-14-206-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Yunusobod tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari

Foiz hisobida

T/r	Tuman nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno
1.	Yunusobod tumani	18%	52%	15%	16%	100%